

MOBIL QURILMALARDAN FOYDALANIB MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Matematika

va Informatika yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Odinaxon Erkinova

Annotatsiya: Ushbu ma'ruzada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mobil qurilmalar yordamida masofaviy ta'limga samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Moodle tizimi, E-ta'limga, va ochiq ommaviy onlayn kurslar (OOOK) imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so`z : masofaviy ta'limga, elektron ta'limga, onlayn ta'limga, Moodle tizimi, ochiq ommaviy onlayn kurslar.

Аннотация: В данной лекции рассматриваются вопросы эффективной организации дистанционного обучения с использованием мобильных устройств и современных информационно-коммуникационных технологий. Проанализированы возможности системы Moodle, электронного обучения и массовых открытых онлайн-курсов (МООК).

Ключевые слова: Дистанционное обучение, электронное обучение, система Moodle, онлайн-обучение, MOOK.

Annotation: This lecture discusses the effective organization of distance education using mobile devices and modern information and communication technologies. It analyzes the capabilities of the Moodle system, e-learning, and Massive Open Online Courses (MOOCs).

Keywords: Distance learning, e-learning, Moodle system, online education, MOOCs.

Kirish

Hozirda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi bilim oluvchilar (o`quvchi, talaba, katta yoshdagilar va h.k.) uchun eng rivojlangan davlatlardagi yetakchi mutaxassis- laridan ta'limga olish imkoniyatini vujudga keltirdi. Bunday ta'limga

shakli masofaviy ta’lim deb nomlanadi. Ta’lim olishni xohlaganlar o`zining mobil qurilmasi yoki shaxsiy kompyuteri yordamida xohlagan vaqtida ta’lim oluvchi uchun zarur bo`lgan kurslarda o`qishi mumkin.

Zamonaviy mobil qurilmalarning texnik xarakteristikalari, ya’ni qurilmalar uchun yaratilgan maxsus ilovalar va veb-saytlar yordamida ta’lim oluvchilar uchun masofaviy ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda insonlar uchun quyidagi ta’lim shakllari taklif etilmoqda:

1. Kunduzgi ta’lim.
2. Distansion ta’lim. Onlayin ta’lim.
3. Ochiq ommaviy onlayn kurslar (OOOK).

Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limdan o`zining ayrim ijobiy tomonlari bilan keskin ajralib turadi. Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’lim turlaridan farqli ravishda keng aholi ommasini qamrab oladi. Masofaviy ta’limning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- ikkinchi oliy yoki qo`shimcha ta’lim;
- ixtiyoriy yoshdagi insonlarning ta’lim olishi;
- jismoniy va oilaviy holatidan qat’iy nazar ta’lim olish;
- ishdan ajralmagan holda ta’lim olish;
- mustaqil ta’lim olish imkoniyatining ko`pligi;
- geografik manzildan qat’iy nazar ta’lim olish;
- tezkorlik imkoniyatlari va boshqalar.

Masofaviy ta’lim – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o`qitish vositalari va shakllari- ni o`z ichiga olgan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’limdir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o`quv shart- sharoitlari va o`qituv- chi bilan muloqotni ta’minlab berib, o`quvchidan ko`proq mustaqil ravishda shug„ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o`qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtida va qaysi joyda bo`lishiga bog„liq emas.

Masofaviy ta’lim tizimi - masofaviy ta’lim shartlari asosida tashkil etiladigan o`qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy ta’lim tizimi o`zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayonida (xususan, masofaviy

ta’lim jarayonini) qo’llash asosan ikki asosga tayanadi: Hardware (texnik jihozlar) va Software (dasturiy ta’midot). Texnik jihozlar kompyuterlar, mobil qurilmalar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi Internet tarmoqlari, videokonferensiya jihozlari va hokazolardan iborat bo`ladi. Dasturiy ta’midotga mavjud qurilmalarni ishlataladigan dasturiy ta’motlardan tortib shu soha uchun mo’ljallangan dasturlar to’plami kiradi.

Moodle – veb muhitida o`qitish va onlayn rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Mazkur tizimda **Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking** kabi ko`plab o`qitish modullari mavjud. Moodle tizimning rasmiy Internet manzili - <http://www.moodle.org>. Ushbu dasturiy majmuuning vazifasi o`qituvchi hamda talaba o`rtasi- dagi turli xil elektron o`quv resusrlarni almashinish, majmuaga vazifalar va masalalarni joylashtirish orqali ta’lim berish samarasini oshirish hisoblanadi.



1- rasm. E-ta’lim komponentalari

Moodle tizimi boshqa LMSlar singari IMS, SCRM va boshqa standartlarni qo’llab-quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda, eng ko`p qo’shimcha plugin va modullari mavjud bo`lgan dasturiy majmua bu- Moodle dasturiy majmuasidir. Moodle tizimi bo`yicha statistikani quyidagi jadvaldan bilib olishimiz mumkin.

Moodle bo‘yicha statistika (2015-yil holatiga)

	Ro`yxatga olingan saytlar	62 075
	Davlatlar	220
	Kurslar	8 552 462
	Foydalanuvchilar	77 918 769
	Ro`yxatga olinganlar	201 686 138
	Forum xabarlari	157 059 272
	Resurslar	77 155 402
	Test savollari	350 454 047

O`zbekistondagi ko`plab ta`lim muassasalari aynan virtual ta`lim muhiti sifatida Moodle dasturiy majmuasidan foydalanib kelinmoqda. Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Virtual ta`lim muhiti” (<http://etuit.uz>), O`zbekiston Milliy universitetining «Ochiq o`quv-axborot markazi», Xalq ta`limi vazirligi qoshidagi «Multimedia umumta`lim dasturlarini rivojlantirish markazi» (<http://moodle.uzedu.uz>), Toshkent Turin Politexnika universiteti (moodle.polito.uz), Andijon mashinasozlik instituti (<http://moodle.andmiedu.uz>) keltirishimiz mumkin.

Ochiq kodli Moodle dasturiy majmuasi o`quv jarayonini boshqaruvchi veb-interfeysli muhitga yo`naltirilgan maxsus tizimi bo`lib, asosan, global tarmoqda foydalanishga mo`ljallangan. Tizimni yaratishda PHP, MySQL, AJAX, JavaScript, HTML, CSS, XML jQuery kabi qator ochiq kodli dasturiy vositalardan foydalanilgan. Uni ishlatalish uchun ma'lumotlar omborini boshqarish dasturi (MySQL yoki PostgreSQL), PHP protsessori, Web-xizmati (Apache yoki IIS) dasturlari sozlangan server zarur. Operatsion tizim sifatida ixtiyoriy keng tarqalgan operatsion tizimlardan biridan foydala-nish mumkin (Windows, Linux, Mac OS X, Novell Netware). Bugungi kunda ta`lim muassasalari Moodle tiziminining 2.9 va 3.2 versiyalaridan foydalanishmoqda.

Elektron ta`limga elektron kitoblar, ta`lim texnologiyalari va xizmatlari kiradi. Aslida elektron ta`lim – ta`limda kompyuterlardan foydalanishdan boshlangan.

Elektron ta`limning shakllanishini uch etapga bo`lish mumkin:

1. CD-ROM disklardagi kurslar;
2. Mutaxassis o`qituvchilarning masofaviy ta`limi;
3. Maxsus interaktiv dasturlardan, elektron kitoblardan foydalaniladigan elektron

ta'lim.

2010-yilga kelib E-ta'limning yana bir shakli - ochiq ommaviy onlayn kurslar paydo bo`ldiki, bu esa bir vaqtning o`zida bir necha minglab talabalarning ta'limiga beradi.

Bugungi kunda bu ta'lim shakli ommalshib bormoqda. Eng ommaviy onlayn kurslarga *Udacity* (<https://www.udacity.com>), *Coursera* (<https://www.coursera.org/>), *Edx* (<https://www.edx.org/>) platformasidagi kurslarni aytish mumkin. Ochiq ommaviy onlayn kurslar formati bo'yicha universitetning yetakchi mutaxassislari tomonidan o`qiladigan klassik

o`quv kurslariga o`xshaydi, o`quv kurslar videoga yozib olinadi va Internetga joylashtiriladi. Bu o`quv kurslaridan ta'lim oluvchilar Internetda ochiq va bepul

onlayn tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Xulosa

Dunyoning yetakchi Stenford, Garvard, Berkli va boshqa o`quv muassasalari o`zlarining o`quv kurslari- dan millionlab ta'lim oluvchilar bahramand bo`lishlari uchun bepul ochiq ommaviy onlayn kurslariga taqdim etmoqda.

Ochiq ommaviy onlayn kurslar o`zaro o`xhash formati va g.,oyalarning bir xilligi asosida birlashgan,

ya'ni:

- kursning davom etish muddati 5-10 hafta;
- talabaga haftalik yuklama 2-10soat;
- bir yoki ikki haftada bir marta uy vazifalarini deadline (oxirgi muddat) olib bajarish zarur;

- butun kurs davomida o`qituvchiga savol berish va maslahat olish imkoniyati;
- kurs oxirida imtihontopshiriladi;

Bu format ta'lim oluvchilar uchun juda qulay va samaralidir.

E-ta'limning afzalliklari. Elektron ta'lim an'anaviy ta'limga qaraganda bir qator afzalliklarga

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliyev A., Tursunov S. — Masofaviy ta’limning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Karimov D. — Elektron ta’lim asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Moodle rasmiy sayti: <https://moodle.org>
4. Coursera, Edx, Udacity onlayn ta’lim platformalari